

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/2 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Нематова Мафтуна</i> ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i> MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i> "SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i> BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i> IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i> ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i> XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ KOMPARATIV FRAZELOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i> ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i> J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i> OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i> ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i> PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i> BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i> SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i> GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i> ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY	115-119
<i>Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i> ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Matayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i> INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI	125-129
<i>Абдуманнонов Хожиақбар Акмалжон угли</i> ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка).....	130-136
<i>Абдуллаева Раъно Хикматовна</i> РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i> TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i> ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i> EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i> WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH	163-169
<i>Xojjiyeva Oynisa Shabonovna</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i> COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI	183-190
<i>Ho'jamqulov Anvar Jozilovich</i> OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI.....	191-196
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманязова Света Байниязовна</i> ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	197-203
<i>Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна</i> СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI	210-216

Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI217-223

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI224-228

Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
TATBIQ ETISH METODIKASI229-233

Pirimova Nargiza Adilovna
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING
O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH234-239

Tangirqulov Elmurod Aliyarovich
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK
TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI240-244

Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI245-258

Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR
TUSHUNCHASI259-265

Valieva Xolida
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI266-271

Djumayeva Dildora Isroilovna
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI272-277

Davlatova Nilufar Vosiljonovna
TA'LIM-ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING
O'RNI VA MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI278-285

Mamaraimova Zebo Shafokatovna
YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK
TAMOYILLARI286-290

Turayev Yolqin Sherzod o'g'li
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI291-295

Abdurasulova Shoirra Kushakovna
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH296-305

Sottarov Abduvali Umirqulovich
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI
SIFATIDA306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i> BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i> TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGİYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdukulovich</i> OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i> ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	361-371
<i>Kasimov Oйбек Омilovich</i> СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОЙДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i> MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOIYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ.....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i> TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i> МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i> ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i> MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i> AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i> JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i> MOLEKULAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	458-463

13.00.00– Педагогика фанлари

Xushnazarova Ma'mura Nodirovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada volontyorlik faoliyati, uning maqsad va vazifalari, talaba-yoshlar faoliyatida, shuningdek jamiyatning ijtimoiy hayotida tutgan o'рни, volontyorlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: volontyor, volontyorlik, moddiy manfaat, ma'naviy manfaat, ko'ngillilik, jamiyat, ijtimoiy hayot, yetakchilik, ijtimoiy muammo, xorijiy tajriba.

Khushnazarova Mamura Nodirovna

Kokand state pedagogical institute,
PhD in pedagogical sciences, associate professor

SOCIAL AND PEDAGOGICAL PROBLEMS OF VOLUNTEERING

Annotation. This article discusses volunteering, its goals and objectives, its role in the activities of students and youth, as well as in the social life of society, as well as the main directions of volunteering.

Key words: volunteering, volunteering, material benefit, spiritual benefit, volunteering, society, public life, leadership, social problem, foreign experience.

Хушназарова Маъмура Нодировна

Кокандский государственный педагогический
институт, доктор философии
в педагогических науках (PhD), доцент

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ВОЛОНТЕРСТВА

Аннотация. В данной статье рассматривается волонтерство, его цели и задачи, его роль в деятельности студентов и молодежи, а также в социальной жизни общества, а также основные направления волонтерства.

Ключевые слова: волонтерство, волонтерство, материальная польза, духовная польза, волонтерство, общество, общественная жизнь, лидерство, социальная проблема, зарубежный опыт.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N48>

Kirish. Bugungi kunda respublikamizda talaba-yoshlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, bo'lg'usi kasbiy faoliyatga tayyorlash borasida olib borilayotgan islohotlar tizimli olib borilmoqda. Talaba-yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirish hamda mustahkamlashda volontyorlik faoliyatining ahamiyati katta.

"Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 6-noyabrda qabul qilingan, Senat tomondan 2019-yil 30-noyabrda

ma'qullangan[1]. Ushbu qonunda volontyorlik, volontyorlik faoliyati, vontyorlik aktsiyalari, volontyorlik tashkilotlari, volontyorlik maqsad va vazifalari belgilab berilgan. Volontyorlik faoliyati jamiyatning rivojlanishida yildan-yilga katta ahamiyat kasb etmoqda va ilmiy-tadqiqot ishlarining yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Ushbu masalaga pedagogik-kontseptual jihatdan yondashgan holda o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda tilimizda va adabiyotlarda volontyor, volontyorlik faoliyati kabi atamalar tez-tez uchrab turibdi. Ushbu savolning javobini to'laqonli izohlash maqsadida lug'atlarga murojaat qilindi. Volontyor (fr. volontaire) – dobrovolets; litso, dobrovolno postupivshee na voennuyu slujbu) ma'nosini anglatadi[8].

Volontyor – volontyorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs hisoblanadi. Volontyorlik esa fuqarolar, ularning guruhlar yoki volontyorlik tashkilotlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab ixtiyoriy faoliyatni amalga oshirish. Volontyorlik faoliyati jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab bepul asosda amalga oshiriladigan, erkin xohish – irodaga ko'ra bajariladigan, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan, jamoat uchun foydali bo'lgan ixtiyoriy faoliyatdir. Volontyorlar – ko'ngillilar biror foyda olish maqsadida emas, balki ezgu maqsadlar yo'lida jamoat ishlarini bajarish, notijorat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash uchun turli vazifalarni bajarishga kirishgan kishilardir. Ular bu maqsad yo'lida o'z vaqtlari va energiyalarini pul olmasdan sarflaydi. Masalan, qaysidir hududda sel toshqini bo'lib odamlarning yashash joylari xarobaga aylangan bo'lsa, volontyorlar tozalash ishlariga yordam berishi mumkin. Yoki o'tkaziladigan turli foydali tadbirlarni tashkillashtirib berishi mumkin. Ularning turli yo'nalishlarda odamlarga foydasi tegadi.

Volontyorlik tarixi XII asrdagi Buyuk Britaniya bilan bog'lanib, bu davrda volontyorlar tomonidan boshqariladigan 500 dan ortiq kasalxonalar mavjud edi. Lekin tarixda bundan oldin ham odamlarga ko'ngilli tarzda yordam berish tizimi bo'lganini inkor qilib bo'lmaydi. Ko'ngilli tarzda qilinadigan ishlar, asosan, din va diniy idoralar bilan bog'liq holda amalga oshirilgan[9].

“Volontyor” so'zi frantsuz tilidan olingan bo'lib, XVII asrga borib taqaladi. Bu so'zning amaliyotda faol ishlatilishi XVIII asrda odamlarning harbiy xizmatga ko'ngilli tarzda qo'shila boshlashi bilan ommalashdi. Bugunga kelib esa “volontyor” so'zi harbiy xizmat bilan emas, ko'proq jamoat ishlari bilan bog'liqdir[10]. XIX asrdan boshlab uyushgan ko'ngillilar harakatlari yoshlar va ayollarning urushlarda yaralangan askarlarga yordam berish, ularga oziq-ovqat, kiyim-kechak yig'ish kabi faoliyatlarni amalga oshirishi uchun tuziladi[11].

Volontyorlik faoliyatini afzallik jihatlaridan biri ko'plab hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yish uchun imkoniyatidir. Jumladan, turli xil soha, faoliyat, millat vakillari hattoki, boshqa yurt fuqarolari bilan hamkorlik talaba-yoshlarning ijtimoiylashuvida muhim agamiyatga ega.

Volontyorlik faoliyati talaba-yoshlarga ta'lim olayotgan yo'nalishidan boshqa sohalarda ham tajriba orttirishga imkoniyat beradi. Bu esa talabalarning qobiliyatlarini yuzaga chiqishiga, o'zining kuchli tomonlarini bilish uchun shart-sharoit yaratib beradi. Volontyorlik bilan shug'ullanuvchi talabalarga faqatgina o'z sohasida ishlash cheklovi qo'yilmaydi[2]. Misol uchun texnik ta'lim yo'nalishi talabasi atrof-muhitni mihofaza qilish, tibbiyot ta'lim yo'nalishi talabasi hayvonlarga yordam berishga yo'naltirilgan volontyorlik faoliyati bilan shig'ullanishi mumkin. Volontyorlik faoliyati talabalarga o'zlari uchun bu sohalarni kashf qilishi, bu sohalarning birida o'z karyeralarining bir qismiga aylantirishi uchun yaxshi imkoniyat hisoblanadi.

Volontyorlik faoliyati bo'yicha xalqaro amaliyot tahlil qilinsa, mazkur faoliyat talaba-yoshlarga volontyorlik faoliyati bilan birgalikda dunyo kezish hamda sayohat qilish uchun

shart-sharoit yaratib beradi. Volontyorlik faqat ma'lum bir hudud doirasida emas, balki xalqaro darajada tashkil etiladigan volontyorlik faoliyati ham mavjud. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, UNICEF va shu kabi ko'plab xalqaro tashkilotlar dunyoning turli nuqtalaridagi talaba-yoshlar uchun boshqa qit'a va davlatlarda volontyor bo'lib faoliyat yuritish imkoniyatlarini taklif etadi. Bunday hollarda bu faoliyat uchun moliyaviy manfaatdorlik bo'lmasa-da, volontyorlarning xalqaro doirada tashkil qilinadigan volontyorlik loyihalariga qiziqishi yuqori hisoblanadi

Talaba-yoshlarning volontyorlik faoliyati bilan shug'ullanishi ularda o'z ishidan qoniqish, o'ziga bo'lgan ishonch hissini kuchaytirishi bilan ahamiyatlidir. Volontyorlik faoliyati talaba-yoshlarda boshqalar vaziyatini to'g'ri baholash, hamdardlik, qiyin vaziyatlarda qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarning sabab va undan kelib chiqadigan oqibatlari haqida tizimli fikrlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. Volontyorlik bilan shug'ullanish orqali talaba-yoshlar o'z hayotlarida foydali ish qilishayotganini his qilishlari va bu orqali o'zlariga bo'lgan ishonch tuyg'usi, oldinga intilishga bo'lgan motivatsiya oshishini aytishadi. Volontyorlik faoliyati talaba-yoshlarda kuchli ishonch va hayotga nisbatan shukronalik hissini tarkib toptiradi. Shuningdek, volontyorlik faoliyati hayotdagi yashash maqsadini belgilashga va keyingi rejalarini aniqlashtirish imkonini beradi.

Volontyorlik faoliyati o'zining afzalliklari bilan birgalikda, huquqiy mas'uliyat, bilimdonlik, sergaklik, mulohazalilikni taqozo etadi. Volontyorlik faoliyatini to'liq ko'ngilli va ixtiyoriy tarzda amalga oshirish lozim bo'ladi.

Volontyorlik faoliyati shaxslarni ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Ijtimoiy faollik murakkab jarayon bo'lib, insonda birdaniga vujudga kelmaydi. Volontyorlik faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarni aholining turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan turli xil jamoat faoliyatiga jalb etish mexanizmlarini shakllantirish;
- ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko'rsatish;
- volontyorlik faoliyatini tashkil etishga qaratilgan fuqarolik tashabbuslarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- aholda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash;
- fuqarolar tomonidan ijtimoiy vazifalarni hal etish uchun o'zini o'zi namoyon etish va o'zini o'zi tashkil etish ko'nikmalarini olish.

Amerikalik tadqiqotchi X.Anxer va L.Salamonlarning tahliliga ko'ra, "ko'ngillilar" tushunchasining G'arb mamlakatlariidagi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, "volunteering" atamasi Buyuk Britaniya va AQShda, fransuzcha "voluntariat", shvedcha "frivillig verksamhet", italyanacha "voluntariato", nemischa "ehrenamt" tushunchalarining vujudga kelishi mazmun va mohiyati jihatdan bir hildir. Mazkur tushunchalarni ijtimoiy-siyosiy jihatdan ishlatish usuli esa turlichadir. Olimlar Buyuk Britaniya va Avstraliyada ko'ngillilar, ya'ni fuqarolar faolligi fuqarolik jamiyati institutlari, davlat va xususiy sektordan alohida faoliyat yurituvchi jamoat sektori sifatida tan olinadi. Boshqa ilmiy tadqiqotlarda fuqarolarning ijtimoiy faolligi davlat va jamiyatga ijtimoiy foydali xizmatlarni keltiruvchi faoliyat turi sifatida baho beriladi[4].

Insonlarga imkon qadar yordam berish, mushkulini, yoki muammosini hal etishga ko'maklashish, yaxshilik qilish yoki sahovat ko'rsatish bugungi kunning dolzarb ijtimoiy muammolaridan biridir. Ushbu muammoga pedagogik- psixologik jihatdan yondashgan holda o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Buning uchun talaba-yoshlar o'rasida

volontyorlik faoliyatini samarali tashkil etish va faollashtirishning pedagogik-psixologik asoslarini yaratish joizdir.

Volontyorlar – ijtimoiy ishlarning asosi hisoblanadi. Talabalar orasidan ko'ngilli volontyorlarni tanlab olish va ularga volontyorlik faoliyatining mazmun-mohiyatini tushuntirish va samarali tashkil etish lozim. Volontyorlar kishilarga qisqa vaqt ichida ishonch, umid uyg'otish maqsadida turli psixologik treninglar uyushtiradilar, ularga moddiy, ma'naviy yordam berish, ularda hayotga bo'lgan ishonch tuyg'usini uyg'otish maqsadida turli xasharga o'xshash maqsadli yordam berish har bir volontyorda altruizmni shakllantirishga sabab bo'ladi. Volontyorlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

1. Ijtimoiy muhofazaga ehtiyoji bor shaxslarni topib, ularning hayot tarzini o'rganib, ularning turmush tarzini psixologik, moddiy va ma'naviy jihatdan o'zgartirish lozim. Nogironligi mavjud bo'lgan bolalarga (bog'cha yoshidagi, maktab yoshidagi) sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida ular bilan individual va guruh shaklida turli bepul madaniy tadbirlar tashkil etish, ularga ruhiy, moddiy yordam berish maqsadida turli hunarlarni o'rgatishdan iborat. Masalan to'qish, tikish, rasm chizish, turli narsalar yasash, salatlar, shirinliklar, taniq taomlar pishirish, keraksiz yoki eskirgan, iste'moldan chiqqan buyumlardan kerakli buyumlar yaratish va boshqalar. Nafaqadagi insonlarning (masalan ustozlar, shifokorlar va boshqalar) uylariga tashrif buyurib ularga yordam berish, vaqtni mazmunli o'tkazishiga yoki foydali ish bilan shug'ullanishlari (bog' ishlari, xovlidagi ishlar, bozor o'char ishlariga) uchun ko'maklashish lozim.

2. Mehribonlik uylari, Qariyalar uylari, maxsus internatlarga tashrif buyurib, ularga sidqidildan yordam berish (ma'naviy, madaniy, psixologik yordam berish va ularga o'zlari tikkan yoki to'qigan kiyimlar, yoki yasagan narsalardan va boshqalardan olib borib berish.) Shu bilan psixologik, ma'naviy, xatto iqtisodiy samaradorlikka ham erishish mumkin. Asosiysi yordam olayotgan har qanday inson o'zining jamiyatda to'laqonli shaxs va insonlar uchun kerak ekanligini ruhan his qilishlari uchun muhim hisoblanadi.

3. Tabiiy ofat bo'lgan hududdagi odamlarga yordam berish, xayriya loyihalari tashkillashtirish, daraxt ekish, atrofni chiqindilardan tozalash, yana qilish mumkin bo'lgan ko'plab yaxshi ishlarni amalga oshiruvchi volontyorlar dunyo bo'yicha 1 mlrd.dan ko'proq[7].

Demak, muhim pedagogik qonuniyatlar asosida oliy ta'limda volontyorlik faoliyatini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan integratsiyasini mustahkamlash, talaba-yoshlarga oid ijtimoiy loyiha va tadbirlarni tizimli tashkil etish, talabalar kengashi va yetakchilik muhitidagi eksperimental faoliyat hamda o'zini o'zi boshqarish tamoyili orqali professional ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar – talabalarda liderlik kompetensiyalari vujudga kelishiga imkoniyat yaratadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi "Volontyorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 169-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2022-y., 09/22/169/0292-son.
2. Азарова Е.С., Яницкий М.С. "Психологические детерминанты добровольческой деятельности". Вестник Томского государственного университета 306 (2008): 120-125.

3. Аберкромби Н. Социологический словарь. – 2-е изд., перераб. и доп. изд. – М.: ЗАО Издательство “Экономика”, 2004. – С. 188.
4. Anheier Н.К., Salamon L.M. Volunteering in cross-national perspective: Initial comparisons. Civil Society Working Paper 10. 2001. – Р. 5.
5. Джери Д., Джери Д. Большой толковый социологический словарь: русскоанглийский, англо- русский в 2 тт., том 1. – М.: Вече-АСТ, 1999. – С. 83.
6. Kenny, Sue, Liz Hogan, and Anne McNevin. “Voluntary activity and local government: managing volunteers or facilitating active citizenship?”. *Social Alternatives* 27.2 (2008): 45-49.
7. Мартынова, Т. Н. "Добровольческая деятельность как форма социальной и гражданской активности студенческой молодежи." *Профессиональное образование в России и за рубежом* 1 (33), 2019. -С.160-167.
8. Словарь иностранных слов под ред. И.В.Лёхина и проф. Ф.Н. Петрова М. 1955 Г. – Стр. 143.
9. McCulloch, Andrew, John Mohan, and Peter Smith. “Patterns of social capital, voluntary activity, and area deprivation in England”. *Environment and Planning A* 44.5 (2012): 1130-1147.
10. Woolley, Frances. *Social cohesion and voluntary activity: making connections*. Centre for the Study of Living Standards, 1998.
11. Marshall, Joan. “Voluntary Activity and the State”. *The Role and Impact of Government Involvement in Rural Communities in Canada: A Commentary and Review of the Literature* 99 (1999).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/2 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).